

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

5 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 5, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 5, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№2 (2022) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2022-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Сабилов Алишер Сабинович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариёв Нуритдин Сапаркариёвич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николев Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, и.о. профессор (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr. 1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Аликариева Аълохон Нуриддиновна ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА СИФАТ МЕНЕЖМЕНТИ ТИЗИМИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	4
2. Хайдаров Аброр Хайдарович МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМ ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА МИЛЛИЙ МАДАНИЯТЛАР ТРАСФОРМАЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСИ СИФАТИДА.....	14
3. Abdurahimova Dilnoza Magrifovna, Salimsakova Nilufar Salixovna PROFESYONAL SHAXSNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI.....	22
4. Аблухалилов Абдулло Абдухамитович НОГИРОНЛИК ФЕНОМЕНИГА ДОИР СОЦИОЛОГИК НАЗАРИЯЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ.....	30
5. Voltaeva Barno Xamidjanovna, Abduqodirov Pulat Anvarovich TA'LIM JAMIYAT TARAQQIYOTINING OMILI SIFATIDA.....	45
6. Ботиров Сарвар Илхомович ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР БРИТАНИЯЛИК ТАДҚИҚОТЧИЛАР НИГОҲИДА.....	54
7. Степанова Ольга Ивановна ТРАНСФОРМАЦИЯ ШКАЛЫ ЦЕННОСТЕЙ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА.....	63
8. Nazarova Nilufar Jo'rayevna YOSHLARDA RAQOBATBARDOSHLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH PARADIGMALARI: SHARQ VA G'ARB KONTEKSTIDA.....	73
9. Abduraxmonova Manzura Manafovna, Akramov Davronbek Oybek o'g'li OILALARDA BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA KONSENSUS.....	82
10. Ахмедова Феруза Медетовна ТИББИЁТ СОЦИОЛОГИЯСИНИНГ ФАНЛАРАРО ИЛМИЙ ЙЎНАЛИШ СИФАТИДА ШАКЛЛАНИШИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	91
11. Hashimova Guzal Fatxullaevna, Sultanova Lola Botirovna HAMKORLIK PEDAGOGIKASI ASOSIDAGI INTERFAOL METODLARNING SAMARADORLIGI.....	99
12. Акрамов Хусан Фуркатович ЎЗБЕК СОЦИУМИДА (МАҲАЛЛАДА) СОЦИАЛ КАПИТАЛ КОНВЕРТАЦИЯСИНИНГ БАҲОЛАНИШИ.....	106

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Abduraxmonova Manzura Manafovna,

Farg‘ona davlat universiteti,

«Ijtimoiy ish» kafedراسи mudiri,

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

e-mail: manzura.abdurahmonova@mail.ru


Akramov Davronbek Oybek o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

tayanch daktarantura izlanuvchisi

e-mail: davronbek_ao95@mail.ru

OILALARDA BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA KONSENSUS

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6717388>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oilada bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olishda, muammolarni yechishda eng avvalo konsensus – mushtarak manfaatlar birligiga, hamkorlikka erishish, qulay yashash sharoitlarini yaratish, rivojlantirish, tarbiyalash va o‘qitish, ularni zo‘ravonlik va shafqatsiz munosabatdan himoya qilish, oilaning ijtimoiy portretini shakllantirish orqali oila va bolalarning psixologik-ijtimoiy farovonligini ta‘minlash maqsadida oilaviy qadriyatlarni, mas‘uliyatli ota-onani, ijtimoiy faollikni shakllantirish, bolalar va yoshlarni hayotga tayyorlashda hamda qo‘llab - quvvatlashda, konsensus asosida yagona yondashuvni shakllantirish uchun maktab, oila va jamiyat hamkorligi asosida hech qanday zo‘ravonlik oqlanmasligini va har qanday zo‘ravonlikning oldini olish mumkinligini anglash, profilaktik darajalarini rivojlantirish, ushbu hamkorlikni ijtimoiy ish kasbiy faoliyati orqali amalga oshirish, o‘quvchining ijobiy ijtimoiylashuviga erishishiga sabab bo‘lishi ko‘rsatib berilgan.

Tayanch so‘zlar: oila, bolalar, zo‘ravonlik, muvaffaqiyat, shikoyatlar chastotasi, konsensus, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, mahalla, ommaviy axborot vositalari, huquqni himoya qilish organlari, profilaktik darajalari, mushtarak manfaatlar, ekspert so‘rovi, ijtimoiy portret, harakatlar.

Абдурахмонова Манзура Манафовна

Ферганский государственный университет,
Заведующая кафедрой «Социальная работа»,

Кандидат экономических наук, доцент

e-mail: manzura.abdurahmonova@mail.ru

Акрамов Давронбек Ойбек угли

Соискатель базовой докторантуры

Ферганского государственного университета

e-mail: davronbek_ao95@mail.ru

КОНСЕНСУС ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ПРОФИЛАКТИКИ ДЕТСКОГО НАСИЛИЯ В СЕМЬЯХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье основное внимание уделяется предупреждению насилия в отношении детей в семье, решению проблем, в первую очередь, консенсуса - единства интересов, сотрудничества, создания благоприятных условий жизни, развития, воспитания и образования, защиты от насилия и жестокости, социального портрета семьи. В целях обеспечения психологического и социального благополучия семьи и детей через формирование семейных ценностей, ответственных родителей, общественной активности, школы, семьи и общества сформировать единый подход, основанный на консенсусе в подготовке и поддержке понимания детьми и молодежью того, что никакое насилие не может быть оправдано и что любое насилие можно предотвратить на основе сотрудничества, развитие профилактических уровней, реализация этого сотрудничества через социальную профессиональную деятельность, привело к достижению позитивной социализации студента.

Ключевые слова: семья, дети, насилие, успех, частота жалоб, консенсус, образование, здравоохранение, махалля, средство массовой информации, правоохранительные органы, уровни профилактики, общие интересы, экспертный опрос, социальный портрет, действия.

Abdurakhmonova Manzura Manafovna

Fergana State University,

Head of the Department of Social Work,

Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

e-mail: manzura.abdurahmonova@mail.ru

Akramov Davronbek Oybek o'g'li

Basic Doctorate Applicant

Fergana State University

e-mail: davronbek_ao95@mail.ru

CONSENSUS ON IMPROVING CHILD VIOLENCE PREVENTION IN FAMILIES

ANNOTATION

This article focuses on the prevention of violence against children in the family, the solution of problems, first of all, consensus - unity of interests, cooperation, creation of favorable living conditions, development, upbringing and education, protection from violence and cruelty, social portrait of the family. In order to ensure the psychological and social well-being of the family and children through the formation of family values, responsible parents, social activism, school, family and society to form a unified approach based on consensus in preparing and supporting children and youth understanding that no violence is justified and that any violence can be prevented on the basis of cooperation, the development of prophylactic levels, the implementation of this cooperation through social work professional activities, has led to the achievement of positive socialization of the student.

Key words: family, children, violence, success, frequency of complaints, consensus, education, health care, mahalla, mass media, law enforcement agencies, levels of prevention, common interests, expert survey, social portrait, actions.

KIRISH

Bolalar uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish, rivojlantirish, tarbiyalash va o'qitish, ularni zo'ravonlik va shafqatsiz munosabatdan himoya qilish har qanday davlat uchun ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalaridan biridir. Bolalarga nisbatan hech qanday zo'ravonlik oqlanmaydi va har qanday zo'ravonlikning oldini olish mumkin. Biroq, dunyo bo'ylab bolalar oilada, jamoada va ta'lim muassasalarida zo'ravonlikka duch kelmoqdalar. Tabiatan murakkab va og'riqli bu muammo yaqin vaqtgacha dunyo hamjamiyati tomonidan keng muhokama qilinmagan. 2006- yildagi BMTning

bolalarga nisbatan zo'rvonlik to'g'risidagi Jahon hisoboti nafaqat bolalarga nisbatan zo'rvonlik ko'lamini, balki uning salbiy oqibatlarini ham har tomonlama tahlil qilishning birinchi xalqaro tajribasi ham bo'ldi.[1] YUNISEF ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 25-50 foiz bolalar jismoniy zo'rvonlikka uchraganlari [2] haqida xabar berilgan.

Mahalliy olim, professor M.Bekmurodov yoshlar va bolalar tomonidan sodir etilayotgan salbiy holatlarni, oiladagi bolaga berilgan mehr bilan bog'laydi va "...bolaga yoshligidan boshlab berilgan mehr uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizim ichki va tashqi ta'sirlariga nisbatan barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mehrdan qoniqmagani bolaning progressiv harakati ijtimoiy konsensusga erishishi imkonsiz ekanligi namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, biz bolani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari yoki uning alohida jihatlari to'g'risida shaxs va jamiyat o'rtasida kelishuvga erishish haqida gaplashmoqdamiz", konsensus " hech bo'lmaganda uning maqsadlari va qadriyatlarini ko'pchilik aholisi tomonidan baham ko'rilganda, rozilik haqida gapirish mumkin. Rizoni yoki uning miqdorini aniqlab bo'lmaydi. Rozilik faqat uning oqibatlari asosida belgilanishi mumkin"[3, -B.5-8] deb ta'kidlashlari, aynan kelajak avlodni tarbiyalashda konsensusga asoslanish ularni barkamol inson bo'lib etishishlariga xizmat qilishiga ishora ekanligidan dalolat beradi. Demak, oilada bolalarga nisbatan zo'rvonlikni oldini olishda, muammolarni yechishda eng avvalo konsensus asosida muvaffaqiyatli hal qilish uchun ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash, mahalla, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy himoya idoralari, huquqni muhofaza qilish organlarining idoralararo hamkorligi muhimdir. Ushbu tizim orqali o'quvchilarni ijtimoiy himoyaladi.

Shuningdek, oilada bolalarni zo'rvonlik qilinishning oldini olish tizimi oilaning ichki resurslariga yo'naltirilgan yondashuv bo'lib, oila va bolalarning psixologik-ijtimoiy farovonligini ta'minlashda oilaviy qadriyatlarni, mas'uliyatli ota-onani, shuningdek, ijtimoiy faollikni shakllantirishga qaratilgan. Samarali va keng qamrovli profilaktik, reabilitatsiya choralari majmuasi bolalar bilan oilada zo'rvonlikning oldini olish bo'yicha ishlarni rejalashtirishning asosiy elementi hisoblanadi.

Bolalar va yoshlarni himoyalashda muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev "... iqtidorli, tarbiyali bolalar bilan ishlash oson, lekin hayotda qoqilgan yoki yomon muhitga tushib qolgan yoshlarni to'g'ri yo'lga, ezgu maqsadga davat qilish, ishontirish qiyin. Biz "uyushmagan yoshlar, uyushmagan yoshlar", deb ko'p gapiramiz. Lekin bu masalani huquqiy va amaliy jihatdan hal qilishga kelganda, ochiq aytish kerak, ko'pchiligimiz nima qilish lozimligini bilmaymiz"[4] deb ta'kidlaganlarida quyida keltirilgan muammolar yechimida ham aynan, jamiyatga, oilalarda, maktablarda ta'lim va tarbiya olayotgan bolalarni hamda yoshlarni, kelajak avlodni barkamol inson qilib yetkazishga xizmat qiladigan profilaktik darajalarini kuchaytirish orqali har tomonlama innovatsion yondashuvlar asosida ko'maklashish zarurligi nazarda tutiladi. Buning uchun o'zgarishlar davrida bolalar va yoshlarni hayotga tayyorlashda hamda qo'llab - quvvatlashda, konsensus asosida yagona yondashuvni shakllantirish uchun maktab, oila va jamiyat hamkorligi asosida profilaktikani rivojlantirish, ushbu hamkorlikni ijtimoiy ish kasbiy faoliyati orqali amalga oshirish, o'quvchining ijobiy ijtimoiylashuviga erishishiga sabab bo'ladi. Bolalarni ijtimoiy himoyalashda jahon tajribasiga tayanib, o'zimizga milliy lashtirishimiz orqali yangicha yondashuvchilarni ishlab chiqishimiz va amaliyotga joriy etishimiz bolalarni, yoshlarni ijtimoiy himoyasini yanada kuchayishiga, ta'lim sifatini ortishiga, ularning hayotiy faoliyatidagi muammolarni kamayishi orqali farovonligini ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, T.Narbayeva bolalar va yoshlar bilan yuzaga kelayotgan muammolar haqida to'xtalib "...asosan yoshlar tomonidan sodir etilayotgan salbiy holatlarning oqibati bilan ishlab qolinayotganligi, yoshlar bilan ishlash, ularni hayotga tayyorlash bo'yicha tizimli ishlar yetarli darajada tashkil qilinmaganligi yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir [5, - B.8] deb ta'kidlaganlarida ham, aynan tizimli ishlar nuqtai nazaridan profilaktik ishlarini kuchaytirish orqali oilalarda bolalarga nisbatan keltirilayotgan ziyonni, zo'rvonlikni oldini olish, muammolarni yechish masalalari nazarda tutilgan bo'lsa, bejiz emas.

ASOSIY QISM

Bolalarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish tizimida 3 ta profilaktik daraja mavjud: birlamchi, ikkilamchi va uchinchi darajali profilaktika.

Hozirgi kunda eng muhim yo'nalish - **bu birlamchi profilaktika bo'lib**, bu oilada bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatlarini o'z vaqtida aniqlashga, tarbiya "madaniyati"ni ko'tarishga, aholini o'qitishga va kattalarga bolalar bilan zo'rvonliksiz usullar bilan munosabatda bo'lishga o'rgatishga qaratilgan. Birlamchi profilaktika axborot-ma'rifiy tadbirlar majmuini amalga oshirishni o'z ichiga oladi: bolalar va ota-onalar uchun ta'lim dasturlari; zo'rvonliksiz usullarni qo'llash orqali bolalar bilan muloqot qilish bo'yicha treninglar; turli xil aksiyalar va bayramlarni o'tkazish; bolalarni himoya qilish bo'yicha tushuntirish ishlarini tashkil etish kabilarni qamrab oladi.

Ikkinchi darajali profilaktika ijtimoiy xavfli vaziyatda bo'lgan bolalar uchun, zo'rvonlik holatlaridan saqlanib qolmagan bolalar uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Ota-onalar, turli soha mutaxassislari: sog'liqni saqlash, ta'lim, huquqni muhofaza qilish organlari bilan olib boriladigan ma'rifiy va axborot ishlari orqali voyaga yetmaganlarni zo'rvonlik qilish holatlarini erta aniqlashni tashkil etish ikkinchi darajali profilaktikaning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Uchinchi darajali profilaktika – bu ota-onaning zo'rvonligidan aziyat chekkan bolalarni ijtimoiy va psixologik rehabilitatsiya qilish uchun sharoit yaratishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy va psixologik rehabilitatsiya maqsadlari:

- zo'rvonlik qilish oqibatlarini oldini olish;
- bolalarga nisbatan takroran zo'rvonlik holatlarining oldini olish;
- oilaviy disfunktsiyani bartaraf etish;
- bolani oilasiga qaytarish.

Oilaviy zo'rvonlikdan aziyat chekkan bolalar turli xil yordamga muhtoj: psixologik, tibbiy, huquqiy, ijtimoiy va ko'pincha rehabilitatsiya choralari o'z ichiga oladi.

Psixologik yordam. Zo'rvonlikdan aziyat chekkan bolaga psixologik yordam ko'rsatiladi, bu taqdim etilgan chora-tadbirlar kompleksida eng muhimi. [6, 114-str]. Psixologik shikastlanish oqibatlari bolani uzoq vaqt bezovta qilishi va shafqatsizlikning somatik oqibatlaridan farqli o'laroq, kelajakda o'z oilasini qurishi bilan odamlar bilan bo'lgan munosabatlarga ta'sir qilishi mumkin. Psixologlar yakka va guruhli psixorektsiya ishlarini olib boradilar. Mutaxassislar bolaning psixologik holatini chuqur o'rganadilar, oiladagi zo'rvonlik natijasida olingan psixologik shikastlanishning og'irligi va mohiyatini baholaydilar. Bolalarga psixologik yordam individual maslahat, oilaviy maslahat yoki jamoaviy ish shaklida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy ish yordami. Ijtimoiy yordam oilalarga qiyin hayot sharoitini hal qilish uchun beriladi, bu esa bolani zo'rvonlik qilishning hal qiluvchi omilidir va quyidagilarni o'z ichiga oladi: uy-joy masalalarini hal qilish, oilaning moddiy darajasini oshirish, nafaqa va imtiyozlarni rasmiylashtirish, hujjatlarni rasmiylashtirish, ota-onalarga ishga joylashishda yordam berish, zarur bo'lganda narkologik rehabilitatsiyani qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ko'nikmalarga o'rgatish kabilarni qamrab oladi.

METODOLOGIYA


Oilada bolalarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish predmetlari: davlat hokimiyatining ijro etuvchi organlari; bolalar ombudsmani; ijtimoiy himoya organlari, ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari (oilalar va bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish markazlari); ta'lim sohasidagi menejmentga mas'ul bo'lgan organlar, ta'lim muassasalari; vasiylik va homiylik organlari; yoshlar bilan ishlash organlari, yoshlar siyosati institutlari; huquqni muhofaza qilish organlari, prokuratura, ichki ishlar organlari; sog'liqni saqlash organlari, sog'liqni saqlash muassasalari; bolalar uchun hududiy jamoat qabulxonalarini kabilarni kiradi.

Oiladagi bolalarni shafqatsizlikdan ijtimoiy himoya qilish to'liq tizimi bo'lib, bu qonuniy va me'yoriy bazaga, bolalar bilan o'zaro aloqada bo'lgan turli tuzilmalar bilan ishlashga yo'naltirilgan tashkiliy tuzilishga asoslanadi. Oilada bolalarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish bo'yicha ishlarning samaradorligini pasaytiradigan asosiy to'siqlar quyidagilardir: yagona uslubiy yondashuvlarning yo'qligi, idoralararo o'zaro hamkorlikning yetarli emasligi, bolalarni oiladagi tajovuzlardan himoya qilish bo'yicha qonunchilik normalari va huquqni qo'llash amaliyotining

kamligi, huquqiy savodsizlik, jabrlanuvchilar, voyaga yetmaganlar bilan profilaktika ishlarini bilmaslik, tibbiy, ijtimoiy, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining shikastlangan bolani yoki ijtimoiy xavfli vaziyatda bo'lgan shaxsni aniqlash va ular bilan muloqot qilish mahoratini tushunmasliklari. Reabilitatsiya tizimining yetarli darajada samarali faoliyati shakllanmaganligi sababli ko'plab reabilitatsiya markazlari voyaga yetmaganlarning jamoatlari hisoblanadi. Ommaviy ta'sir, ota-onalarni ma'muriy, jinoiy javobgarlikka tortish vaqtinchalik natija beradi. Shuning uchun ota-onalarga tarbiyaning konstruktiv usullarini o'rgatish va bolaga nisbatan zo'rvonlik choralari ko'rmaslik, bola huquqlariga nisbatan hurmatli munosabatni shakllantirish zarur. Zo'rvonlik qilishning oldini olish texnologiyalari orqali xavfsiz muhitni yaratishi kerak, ammo qurbon bo'lgan bolalar bilan yangi texnologiyalar va usullarni amalga oshirish qiyin. Profilaktika subyektlarining idoralararo o'zaro ta'sirini tashkil etish va shu bilan umuman bolali oilalarda zo'rvonlik holatlarini aniqlash va oldini olish, bolaga o'z vaqtida yordam ko'rsatish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirish zarur.

Shunday qilib, oilada bolalarni zo'rvonlik qilishning oldini olish darajalari o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, oilada bolalarni zo'rvonlik qilishning oldini olish va kamaytirishga yordam beradi. Oilada bolalarni zo'rvonlik qilish muammosi, albatta, jamiyatning ijtimoiy xavfsizligiga tahdid soladi va uni jamiyatning barcha manfaatdor tuzilmalari: huquqni muhofaza qilish idoralari, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy himoya o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaratish va rivojlantirish orqali hal qilish mumkin. Chunki uslubiy va me'yoriy darajadagi qo'llab-quvvatlanadigan aniq va yaxshi muvofiqlashtirilgan ish muvaffaqiyatning kalitidir.


Shuningdek, bugungi kunda zo'rvonlik faktlariga yo'l qo'yilgan oilaning ijtimoiy portretini aniqlashtirish, bolalarga zo'rvonlik qilish holatlarini oldini olish va kamaytirish bo'yicha asosiy chora-tadbirlarni ko'rish, bolani ta'lim muvaffaqiyatsizligiga sabab bo'luvchi oiladagi zo'rvonlik sabablari sohasini aniqlash maqsadida izlanishlar olib borish talab etiladi. Ushbu maqolada ekspert tadqiqot usulidan foydalanil tadqiqot yoritilgan bo'lib, unda ekspert so'rovida xalq ta'limi bo'limi maktablarining 12 nafar yoshlar yetakchisi lavozimidagi mutaxassisi, 5 nafar psixolog mutaxassisi, shahar vasiylik va homiylik organlaridan 2 nafar kishi ishtirok etdi. Barcha respondentlar oliy ma'lumotga ega bo'lib, 1-yil dan 15-yilgacha bo'lgan ijtimoiy xizmat ko'rsatish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislarni tashkil etib, ularga oilalarda bolalarga nisbatan zo'rvonlik xolatlarni aks ettiruvchi ota-onalarning ijtimoiy mavqei bilan bog'liq savolliklar taqdim etildi. Natijada, shafqatsiz muomalaga oid shikoyatlar chastotasi to'g'risida savolga respondentlarning aksariyati 77,8%i ijobiy javob berishdi, ya'ni bundan oilada bolalarga zo'rvonlik qilish muammosi hozirgi paytda mavjudligi, degan xulosaga kelish mumkin, "kamdan-kam" va "hech qachon" javoblari har biri 11,1% respondent tomonidan tanlangan. (1-rasm).



1-rasm. So'rovlar chastotasi.


Oilalarda moddiy farovonlik darajasini baholashda, respondentlarning hech biri "yuqori darajadagi moddiy boylik" degan javobni tanlamadi, 33,3% o'rtacha boylik darajasini, 55,6%i

oilalarda kam moddiy boylikni ko'rsatganlar. Javoblaridan xulosa mumkinki, kam ta'minlangan oilalarda bolalarga nisbatan zo'ravonlik faktlari ko'proq uchraydi, bu ham zo'ravonlikning namoyon bo'lishining sabablaridan biri hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Moddiy boylik.

Oila tarkibini aniqlashda, bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari to'la oilalarda ham, to'liq bo'lmagan va katta (ko'p bolali)oilalarda ham bo'lishi mumkinligi e'tirof etilgan.




3-rasm. Oilaning tarkibi.

Ota-onalarning ta'lim darajasiga to'xtalinishda, ota-onalarning 62,5 foizi o'rta maxsus, 37,5% o'rta, bunda oilaning ijtimoiy mavqei oilaning saviyasi bilan bog'lanib, ta'lim darajasi ta'lim sifatiga va mas'uliyatli ota-ona shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki aholining ta'lim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ota-onalarning farzandlariga nisbatan deviant xatti-harakatlari xavfi ham past bo'ladi.

Ota-onalarning ijtimoiy holati- ota-onalarning 75% doimiy ish joyiga ega emasligi, ya'ni oilalarning moddiy bazasi past deb baholandi, "ishlayotgan" ko'rsatkichni 12,5%i tanlanganlar, bundan xulosa qilishimiz mumkinki, ota-onalarning ishsizlar holatidagi ulushi ko'p. Shuningdek, oilaning "ijtimoiy xavf" guruhiga tegishli ekanligini aniqlashda, aksariyati oiladagi bolalarga zo'ravonlik qilishning qayd etilgan holatlari allaqachon ijtimoiy xavfli holatda bo'lgan oilalarga tegishli ekanligi ta'kidlanadi.

Oilada bolalarni zo'ravonlik qilish sabablarini aniqlanganda 11 kishi ota-onalarning kam madaniy darajasini qayd etdi, ya'ni har qanday ijtimoiy hodisa oqibatlarini to'g'irlashdan ko'ra oldini

olish osonroq bo'lgani uchun, bu yo'nalishda ishlash kerak deb tahmin qilish mumkin. Bolalar bilan konstruktiv muloqot qilish ko'nikmalarini o'rgatish, zo'ravonliksiz ta'lim usullarini qo'llash, oilaning ijobiy modelini shakllantirish oilada bolalarni zo'ravonlik qilish holatini o'zgartirishi mumkin. Teng miqdordagi javoblar (5) spirtli ichimliklar iste'mol qilishi natijasida zo'ravonlik qilish, moddiy va uy-joy muammolari sababli olingan. (4-rasm). Mutaxassislar bilan rozi bo'lmaslik mumkin emas, chunki oilalarning moddiy tarkibiy qismi bugungi kunda muhim ahamiyatga ega, chunki bolalar kattalarning salbiy ta'siriga javob bera olmaydilar, lekin bolalarning oilaviy muhitda normal rivojlanishlari uchun yetarli darajada moddiy ta'minlanganlik bo'lishi zarur.



4-rasm. Zo'ravonlik qilishning sabablari.

Umuman olganda o'tkazilgan tadqiqot natijasida respondentlardan muassasa ishini boshlang'ich, ikkinchi va uchinchi profilaktika darajalariga ko'ra qanday taqsimlash kerakligini aniqlash talab qilindi. Ularning fikriga ko'ra qaysi darajaga ko'proq e'tibor qaratish lozimligi edi, respondentlarning 55 foizi ishlarning aksariyati birlamchi profilaktika yo'nalishi bo'yicha olib borilishi kerak zarurligi, bu mas'uliyatli ota-onalar institutini shakllantirishga asoslanadi deb qarashdi. Darhaqiqat birlamchi bosqichda olib borilgan yuqori sifatli ishlar keyingi bosqichlarda og'ish xulqlarining kamayishini kafolatlashi mumkin. O'tkazilgan tadqiqotda respondentlarning 25 foizi ikkinchi darajali profilaktika, ya'ni ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi oilalar bilan ishlash zarurligini ko'rsatib o'tishdi. Mutaxassislarning 20% eng yuqori darajadagi profilaktika darajasini tanladilar, aynan shu darajada mutaxassislar bolaning ruhiyati va sog'lig'iga yetkazilgan oqibatlarni bartaraf etishadi va bolani keyingi joylashtirish bilan shug'ullanadilar deb javob berdilar. Bundan ham ko'rinib turibdiki bolani tarbiyalashda dastlabki, birlamchi profilaktika ishlarini kuchaytirish zarurligini. Birlamchi profilaktikada konsensus asosida jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlikda olib borilgan kuchli harakatlar natijasi keyingi oqibatlarni oldini olishga xizmat qilishi mumkin.

Bolali oilalarda zo'ravonlik qilish masalasini hal qilishning eng samarali choralarini aniqlashda, respondentlar tomonidan ma'muriy va jinoiy jazo choralarini ko'rish, ota-onalarga jazo tayinlash, uni jinoyat qonunchiligida ta'minlash zarurligi, shuningdek, ma'rifiy dasturlar va oilalardagi profilaktik suhbatlar va bolalar zo'ravonligining asosiy profilaktikasi zarurligi ta'kidlandi. (1-jadval). Savol tug'iladi nega oila zo'ravonlik ko'paymoqda? Bu bir necha omillarga bog'liq. Shulardan biri oilaviy zo'ravonlikka nisbatan toqatlilik va hatto uni ko'pincha ma'qullash omili. Britaniyada ota-onalar, garchi engil tarzda bo'lsa-da, farzandlarini uradi. Bunday xatti-harakat ma'qullanadi ham, zo'ravonlik deb baholanmaydi ham. Myurrey Strausning fikricha, ota-onalar huquqi – bu “urush huquqidir”. [7, B. - 455]

1-jadval

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, oilada bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini oldini olish va kamaytirish bo'yicha eng samarali harakatlar:

oilalarda profilaktik suhbatlar	☆ ☆ ☆ ☆
ta'lim muassasalarida ta'lim dasturlari	☆ ☆ ☆ ☆
jinoiy jazo joriy etish	☆ ☆ ☆
ma'muriy ta'sir	☆ ☆ ☆ ☆ ☆ ☆ ☆
ota-onalarga nisbatan qo'llaniladigan iqtisodiy sanksiyalar	☆ ☆ ☆ ☆ ☆ ☆
bolalarni ijtimoiy himoya qilish	☆ ☆ ☆
Boshqa	☆ ☆

☆ — респондентлар бирлиги

Tadqiqot natijasida reespondentlar tom0nidan maxsus qonun ishlab chiqish bo'yicha takliflar qilindi:

- ✓ Ota-onalar uchun ma'muriy va iqtisodiy sanksiyalarni joriy etish orqali ushbu sohadagi muassasalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar tizimini takomillashtirish;
- ✓ Xavf ostida bo'lgan har bir oilaning shaxsiy nazoratga olinishi;
- ✓ Alohida qonun huquqiy hujjatlarning tizimini murakkablashtiradi, ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan huquqiy vositalarning mazmunini kengaytirish, ota-onalarning bolalarga nisbatan noto'g'ri munosabati uchun javobgarlik choralari kuchaytirish, jamoat ishlari va majburiy psixologiya kurslarini jazo sifatida ota-onalar uchun joriy etish zarur;
- ✓ Ota-onalarga nisbatan ijro etish uchun majburiy bo'lgan maxsus ta'sir choralari qo'llash (o'qitish, davolash, ishga joylashish va hk);

Tadqiqot natijalariga ko'ra, zo'ravonlik qilish holatlariga yo'l qo'yilgan oilalar xolatlarini: o'rta maxsus ma'lumotga ega ekanligi (bilimsizligi, hayotiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi), kam moddiy daromad bilan ta'minlanganligi, ishsizligi yoki vaqtinchalik ish bilan shug'ullanishi, ijtimoiy xavfli vaziyatga tushib qolganligi kabilarni tashkil etdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, darhaqiqat, bugungi kunda eng keng tarqalgan zo'ravonlik turlari jismoniy zo'ravonlik va beparvolikdir. Muassasalar jarohat olgan bolaga nisbatan kompleks choratadbirlarni ko'rishlariga qaramay, ota-onalarga nisbatan jazoni kuchaytirish uchun maxsus huquqiy vositalarni shakllantirish zarur, shuningdek, bolalarni zo'ravonlik qilish faktlarini oldini olish bo'yicha eng samarali choralar qayd etilgan oilada ma'muriy choralar va jazo choralari qo'llaniladi. Shuningdek, mutaxassislarning faoliyat samaradorligini pasaytiradigan asosiy omillar - bu zaruriy hujjatlarning xajmining ko'pligi va ota-onalarning masalaning jiddiyliги to'g'risida tushunchasini yetishmasligi. Shuning uchun mutaxassislarning fikriga ko'ra, profilaktikaning birlamchi darajasiga e'tibor qaratish lozim, chunki har qanday salbiy ijtimoiy hodisalarni oldini olish, oqibatlarini bartaraf etishga nisbatan osonroqdir. Birlamchi bosqichda olib borilgan yuqori sifatli ishlar keyingi bosqichlarda og'ish namoyonlarining kamayishini kafolatlashi mumkin. Mutaxassislarning hech biri biron bir profilaktika darajasini istisno qilmadi, bu eng samarali ishni ta'minlash uchun, xolatning yengil-og'irligidan kelib chiqib, profilaktikaning uch darajasida ishlash majburiy ekanligini ko'rsatmoqda. Mas'ul ota-onalar institutini shakllantirishda, nafaqat ota-onalar, balki bolalar uchun ham ta'lim dasturlarini joriy etish kerak. Demak, bugungi kunda aholi o'rtasida oilalarda bolalarga nisbatan zo'ravonlikning har qanday ko'rinishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish va bolalarga zo'ravonlik qilish kabi ijtimoiy hodisaning oldini olish bo'yicha ishlar juda ham dolzarbdir.

O'rganish natijalariga ko'ra ushbu sohaga aloqador muassasalar uchun bolalarga nisbatan zo'ravonlik profilaktikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish mumkin:

- 1) Bolalarni himoya qilish bilan shug'ullanadigan organlar va muassasalarning idoralararo o'zaro aloqalarini yanada mustahkamlash;
- 2) Bolalar uchun telefon orqali psixologik va huquqiy qo'llab-quvvatlash tarmog'ini kengaytirish, tegishli tashkilot va muassasalar bilan o'zaro aloqalarni o'rnatishga yordam berish;
- 3) Oilalar va bolalarga profilaktika va reabilitatsiya xizmatlarni ko'rsatadigan yordamchi-xizmatchi tashkilotlarning yagona ma'lumotnomasini yoki veb-saytini yaratish;
- 4) Ommaviy axborot vositalari, ta'lim tizimi va ijtimoiy himoya yordamida oiladagi bolalarni zo'ravonlik qilish masalalari bo'yicha aholining xabardorligini oshirish;
- 5) Ota-onalar uchun ta'lim dasturlarini joriy etish, ota-onalarga bolalarni tarbiyalash madaniyatini o'rgatish, bolalar bilan konstruktiv o'zaro munosabatlarni rivojlantirish;
- 6) Oilalarda bolalar zo'ravonligining oldini olish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan hududiy prinsip asosida qurilgan muhim tadbirlarni tashkil etish;
- 7) Ta'lim tizimida, ommaviy axborot vositalarida o'quv dasturlari orqali bolalarning huquqiy savodxonligini oshirish kabilarni kiritish mumkin.

Иктибослар/Сноски/References:

1. 2006 г. на 61-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН Генеральный секретарь ООН представил Доклад независимого эксперта для проведения исследования ООН по вопросу о насилии в отношении детей http://www.unicef.org/violencestudy/reports/SG_violencestudy_ru.pdf, Pinheiro P.S. World Report on Violence Against Children. 2006. <http://www.unicef.org/violencestudy/reports.html>
2. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-beshikdan-boshlanadi>
3. Бекмуродов М.Б, Каримов Б.Ш. Меҳр тушунчасининг ижтимоий муносабатларни консенсус даражасида юксалтиришдаги роли. Ижтимоий тадқиқотлар журналі. №SI-1 (2021) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2021-SI-1>. 2021. –Б. 5-8.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. « Камолот » ёшлар ижтимоий ҳаракатининг I V қурултойида сўзланган нутқ.- Тошкент: «Узбекистон» НМИУ, 2 0 1 7 . – 533 б. <https://staff.tiiame.uz/storage/users/422/books/NRUBNadeCLxIFSdtMIiWIVHiIriLZbs3e6WkOW6m.pdf>
5. Нарбаева Т. Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим омили//Таълим муассасаларида таълим ва тарбия уйғунлигини таъминлашда хотин-қизларнинг ўрни. - Тошкент - Iqtisod-Moliya. 2019. - Б.8.
6. Синягина, Н. Ю. Психологические аспекты жестокости в детско-родительских отношениях / Н. Ю. Синягина. – М. – Ульяновск : фирма Darp, 1995. – 114 с. <https://search.rsl.ru/ru/record/01009483379>
7. Гидденс Э. Социология. –Т.: Шарқ, 2002. Б. – 455.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

5 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 5, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 5, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000